

## **BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBGA QADRIYATLI YONDASHUV KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

**Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

*Telefon: +998917793882*

*[munisxonernazarova21@gmail.com](mailto:munisxonernazarova21@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirishning dolzarbliji, pedagogik-psixologik asoslari hamda amaliy usullari tahlil qilingan. O'qituvchilik kasbining ijtimoiy-ma'naviy mohiyati, tarixiy va zamонавиy qarashlar kontekstida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni samarali shakllantirishning nazariy va amaliy mexanizmlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy qadriyatlar, o'qituvchi shaxsi, fidoyilik, motivatsiya, ta'lim sifati, tarbiya.

**Annotation:** This article analyzes the relevance, pedagogical and psychological foundations and practical methods of forming the skills of a value-based approach to the profession in future teachers. The socio-spiritual essence of the teaching profession is considered in the context of historical and modern views. Also, theoretical and practical mechanisms for the effective formation of these skills in the educational process are highlighted.

**Keywords:** professional values, teacher personality, dedication, motivation, quality of education, upbringing.

### **Kirish**

Zamonaviy ta'lim tizimida raqobatbardosh, ijtimoiy mas'uliyatli, ma'naviy jihatdan yetuk shaxslarni tarbiyalash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchining shaxsi, ayniqsa uning kasbga bo'lgan qadriyatli yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, shaxsiy namuna ko'rsatuvchi yetakchi sifatida e'tirof etilmoqda [1].

Pedagogik adabiyotlarda kasbga qadriyatli yondashuv — bu o‘qituvchining o‘z kasbiga ma’naviy-axloqiy mezonlar asosida munosabatda bo‘lishi, uni jamiyatga xizmat sifatida anglay olishi deb ta’riflanadi [2]. Bunday yondashuv quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- O‘qituvchilik kasbiga nisbatan ichki motivatsiya va fidoyilik;
- Jamiyat oldida axloqiy mas’uliyat;
- O‘quvchilarga nisbatan samimiylilik, mehr, sabr-toqat;
- Doimiy o‘z ustida ishslash va o‘sishga intilish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pozitsiyasi ularning kelajakdagi faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qadriyatga asoslangan yondashuv:

- Kasbiy tayyorgarlik sifatini oshiradi;
- Ta’lim jarayoniga ijobiy ruh bag‘ishlaydi;
- O‘quvchilar bilan munosabatni insoniylik asosida qurishga xizmat qiladi [3].

Shuningdek, o‘qituvchilik faoliyatidagi "yonib ishslash" (burnout) sindromining oldini olishda ham ichki motivatsiya va qadriyatli yondashuv muhim o‘rin tutadi [4].

O‘zbek pedagogikasining buyuk namoyandalari – **Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiyy, Ahmad Donish** asarlarida o‘qituvchi shaxsining ma’naviy mohiyati chuqr tahlil etilgan. Ularning asarlarida o‘qituvchi faqat bilim emas, balki yurak tarbiyasi bilan shug‘ullanishi zarurligi ta’kidlanadi [5].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni maktablarda pedagogik amaliyatga jalb etish, ular faoliyatini tahlil qilish (refleksiya), mentor o‘qituvchilar bilan fikr almashish orqali kasbiy qadriyatlar shakllanadi.

Kasbga sadoqatli, fidoyi o‘qituvchilar bilan uchrashuvlar, seminar-treninglar, “Ustoz-shogird” dasturlari orqali bo‘lajak pedagoglarning kasbga bo‘lgan ijobiy munosabati mustahkamlanadi [6].

O‘zini anglash, ijtimoiy mas’uliyat, empatiya, ma’naviy intizom kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish orqali kasbga bo‘lgan qadriyatli munosabat barqarorlashadi.

**Xulosa:** Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish — bu ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi

muhim omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ushbu ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvlar orqali fidoyi, mas'uliyatli, ijtimoiy ongli pedagoglar yetishtirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, yurt taraqqiyotining eng muhim tayanchlaridan biri bo'lgan sifatli ta'larning poydevorini yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Abduraxmonov Q., Shukurov E. Pedagogik mahorat. — T.: O'qituvchi, 2019.
3. Hasanboyeva O.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: Fan va texnologiya, 2017.
4. Sultonova D. Kasbiy yonish sindromining oldini olishda motivatsiyaning o'rni // Pedagogika va psixologiya jurnal. – 2023. – №2. – B. 35–40.
5. Avloniy A. Turkiston bolalarining tarbiyasi. — T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1992.
6. Xoliqova D. Bo'lajak o'qituvchilarining axloqiy qadriyatları // O'zbekiston pedagogik jurnalı. – 2022. – №4. – B. 12–18.